TOXIR BENJULLUNNING "VATAN" ROMANIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING BADIIY TALQINI

Abdulazizova Dilobar
Tadqiqotchi, Toshkent, O'zbekiston
abdulazizova.da@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda fransuzzabon arab adabiyotining yorqin namoyondasi Toxir Benjullunning "Vatan" romani, unda vatanparvarlik g'oyasining aks etishi o'rganiladi. Romanda qo'llangan "vatan" tushunchasi va uning zamiridagi keng ma'no, badiiy talqin ochib beriladi. Unda vatanparvarlik tuyg'usining o'ziga xos xususiyatlari hamda muhojirlik sharoitida yuzaga keladigan begonalik hissi tahlil qilinadi. Asarning bosh qahramoni Muhammad obrazi misolida xotira, sog'inch, madaniy o'zlik va ruhiy bog'liqlikning insonning Vatan haqidagi tasavvurlarini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Toxir Ben Jellun, "Vatan" romani, Vatan tushunchasi, vatanparvarlik, muhojirlik, madaniy o'zlik, begonalik, xotira.

Kirish qismi: Xalqaro migratsiya jarayonlari zamonaviy adabiyotda Vatan, milliy o'zlik, madaniy mansublik va begonalik kabi tushunchalarning badiiy talqinini dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Marokashlik yozuvchi Toxir Ben Jellunning "Vatan" romanida mazkur muammo markaziy o'rin egallaydi. Asarda Fransiyada uzoq yillar mehnat qilgan Muhammadning o'z vataniga qaytish orzusi, Marokashga bo'lgan chuqur muhabbati va qaytishdan keyingi ruhiy kechinmalari orqali muhojirlikning murakkab psixologik jihatlari ochib beriladi. Roman badiiyatida Vatan tushunchasining ko'p qirrali talqini, ayniqsa, qahramonning ikki makonda – muhojir bo'lib yashagan Fransiyada hamda tug'ilib o'sgan Marokashda ham o'zini begona his qilishi orqali namoyon bo'ladi. Ushbu holat muhojirlikning faqat jismoniy ko'chish bilan bog'liq emasligini, balki shaxsning o'zligini anglash, madaniy mansublikni saqlash va ruhiy tayanch izlash jarayonlarini ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Asosiy qism: Toxir Benjelluning bu romani "Vatan" deb nomlangan. Asar nomi sifatida tanlab olingan bu tushuncha romanda sodda, yuzaki, kundalik so'zlashuvda iste'molda bo'lgani kabi joy, makonga nisbatan qo'llaniladigan oddiy ibora emas, u muallif tomonidan murakkab, ko'p qirrali, keng ma'noli, qorishiq hissiyotlarga boy qilib tasvirlanadi. Romanning asosiy dramatizmi ham aynan "Vatan" tushunchasida namoyon bo'ladi. Muhammad butun umrini Fransiyada ishlab o'tkazib, bir umr vatanim deb Marokashni qumsab yashaydi, lekin yurtiga qaytib borganda u yerda ham begona bo'lib qoladi. Bu ikki tomonlama ham musofir yurtda, ham tug'ilib o'sgan yurtidagi begonalik hissi muallifning eng kuchli badiiy topilmalaridan biri, ehtimol o'zi yashab o'tgan hayotiy tajribasidir. Qahramonlardagi vatanparvarlik esa an'anaviy ma'nodagi "qahramonlarcha" vatanparvarlik emas, u jismoniy, amaliy harakat bilan belgilanmaydi, balki ichki tuyg'u va hissiyotlar, sog'inch, xotira, ruhiy bog'liqlik, orzu-maqsadlar, qadriyatlarga sodiqlikda o'z aksini topadi. Romanda vatan hech qachon hozirgi zamonda tasvirlanmaydi. U doim xotirada, qahramonning qalbida, ichkarida. Muhammad moddiy ma'nodagi aslida mavjud bo'lgan makon – Marokashdan ko'ra, ichki Marokashini sevadi. U hech kimga isyon qilmaydi, nolimaydi, shikoyat qilmaydi, sabr bilan, mehnat qilib pul yig'adi va bir kun vatanga qaytishni orzu qiladi. U o'zining sabri va sadoqati bilan vataniga bo'lgan so'zsiz va chuqur muhabbatini izhor

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qiladi. Muhammadning vatanparvarligi uning kundalik odatlarida, tilida, bolalariga aytib bergan hikoyalarida, shirin bolalik xotiralarida ko'rinadi. Muhammad uchun vatan hamma narsa, hayotidagi bosh maqsad edi. Shuning uchun ham u "Vatani"ni hamisha dilida saqlar va umrining hech bir jabhasida uni yodidan chiqarmas edi:

يوقع برسم شجرة، ويقول إنها شجرة زيتون، الشجرة نفسها الموجودة في القرية. كان يخط خطين عموديين تعلوهما دائرة مليئة بالخطوط، توقيع أصيل يخالف الصليب الاعتيادي الذي يخربشه رفاقه[1]

"U zaytun daraxtining rasmini chizib imzo qo'yardi va bu o'sha qishloqdagi zaytun daraxti ekanini aytardi. U ikki tik chiziq chizar, ularning ustiga esa chiziqlar bilan to'ldirilgan doira qo'yardi. Bu uning o'ziga xos imzosi bo'lib, do'stlari chizadigan oddiy xochdan farq qilardi".

Boshqa qahramon hatto o'z imzosida – shaxsiyatini ifodalashning bir vositasida vatanining bir parchasini aks ettiradi. Muallif zaytun daraxti va xochni – bu ikki ramziy ifodani qarama-qarshi qo'yadi. U do'stlari kabi emas, uning dini boshqa, madaniyati boshqa, qahramon o'z "men"iga, qadriyatlariga, o'z ildizlariga ega, Fransiya jamiyatiga singib ketmagan degani bu. Romanda bu parchaga muallif tomonidan hech qanday sharh berilmaydi. O'quvchining o'zi bu nozik ma'nolarni muallifning badiiy mahorati orqali his etadi.

Yana romandagi vatanparvarlik diniy qarashlar bilan qorishiq holda ifodalandi. Bu tabiiy, chunki din inson turmush tarzining, qadriyatlarining, axloqiy mezonlarining katta qismini tashkil etadi. Muhammad ham diniga sodiq, e'tiqodida qat'iy, dinga va uning ahkomlariga hurmat bilan yondashadigan, diniga imkon qadar rioya qiladigan musulmonlardan. U bu dindorlikni farzandlariga yuqtira olmagan bo'lsa ham, diniga sodiqlik uning hayotining bir qismi edi. Muhammad uchun din – o'zi va fransuzlar orasidagi chegarani belgilashda omil bo'lib xizmat qiladi. Bu chegara uning uchun vatan tushunchasining bir qismi. Vatan – nafaqat tuproq, balki hayot tarzi, nikoh, oila. Bularning barchasi birgalikda bir butun tushunchani tashkil qiladi.

Muhammadning vatanga qaytishdagi kutilmalari ro'yobga chiqmaydi. Natijada vatanga bolgan qattiq muhabbat, intilish va vatanga begonalik hissi o'rtasida katta kontrast, vatanparvarlik tuyg'usi va real hayot o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Bu vatanparvarlikning fojiasi ham shunda. U Marokashni xotiralaridagidek iliq tasavvur qiladi, 40 yil oldingi o'zi sevgan vatanni qidiradi, lekin oxiri u faqat xotiralarda qolganini anglaydi. Bu ideal vatan va real vatan o'rtasidagi to'qnashuvdir. Demak, "Vatan" tushunchasi har doim ham, hamma uchun ham bir xil tushuncha emas, u vaqt, makon, shaxsiy tajriba ta'sirida o'zgarib turadi. Romandagi Muhammadning "vatanparvarligi" o'ziga xos, biroz shikastlangan, qahramonning hayotdagi maqsadi edi, uni bu hayotda ushlab turgan ilinj edi, lekin u qidirganini topa olmadi va hayotdan ko'z yumdi. Bir umr o'z vatanini izladi, qalbida o'z olamidagi vatanga intildi, uni Fransiyadan topolmadi, Marokashdan qidirdi, lekin alaloqibat umidlari puchga chiqqan, sahroda sarobni izlagan kimsaga aylandi.

Xulosa qismi: Roman "Vatan" deb nomlangan. "Vatan" tushunchasi bu romanda hech qachon oddiy joy ma'nosida ishlatilmaydi. U Muhammadning hayotida ko'p qatlamli tushunchaga aylanadi. "Vatan" xotiralar, bolalik, turmush tarzi, madaniyat, o'zlik, xavfsizlik, mansublik, qadriyatlar, din kabilarni o'zida birlashtiradi. Muhammad uchun vatan joy emas, u uning ichki dunyosi, yashash sababi. Yana muallif "vatan" tushunchasining og'ir, murakkab, ba'zan ziddiyatli tomonlarini ham ochib beradi. Bir umr vatan deb yashash va oxirida kutganiga teskari ravishda vatanida qahramonning o'zini begona

[1] بن جلون الطاهر. البلد. – الدار البيضاء: المركز الثقافي العربي، 2010. – ص. 41

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

his qilishi bu tushunchani yanada murakkab ekanini, muhojirlikning katta yo‘qotishi – bu nafaqat jismonan, balki ruhan vatandan judo bo‘lish ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. О.А.Власова, А.Б. Дербисалиев, С.В. Прожогина. «Литература Марокко». – М., 1993.
2. Джугашвили Г.Я. Литература Марокко: Литература на французском языке. - Литературы Африки. – М., 1979.
3. Муҳиддинова Д. З. ЗАМОНАВИЙ АРАБ АДАБИЁТИДА ҲИНД МИФОЛОГИЯСИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 25. – С. 238-244.
4. Мухиддинова Д. З. ЗАМОНАВИЙ ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ АДАБИЁТИДА ЯНГИЛАНИШЛАР ТАМОЙИЛИ (япон, араб, ўзбек адабиёти мисолида) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 22. – С. 130-133.
5. Абубакиров Д., Мухиддинова Д. Художественные языковые особенности 人口 庭園 в произведении «Фальшивый сад» Абе Томодзи //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 468-474.
6. Прожогина С.В. Франкоязычная лиетарутура стран Магриба. М., 1973.
7. U. U M, D M, N S, Sh K, G S, M E. Features of The Development of Drama in the Easterncountries. IJSSRR [Internet]. 1Mar.2022 [cited 10Oct.2026];5(3):31-. Available from: https://ijssrr.com/journal/article/view/223
8. Mukhiddinova D. Z. Trends in the development of the Jordanian short story of the twentieth century //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 1695-1704.
9. ZOKHRIDDINOVNA M. D. THE WORKS OF MODERN JORDANIAN WRITER ILIAS FARQUH //THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 160-165.
10. الطاهر بن جلون.البلد :.المركز الثقافي في العربي2010،

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.